

**CHUST TUMANI ZIYORATGOHLARI TARIXIDAN
(MAVLONO LUTFULLOH ZIYORATGOHI MISOLIDA)**

Jasurbek Mamatov Qodirqul o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Namangan viloyati ziyoratgohlarining kelib chiqish tarixi va ularning mahalliy aholi etnomadaniyatida tutgan o'rni Namangan viloyati Chust tumanidagi Mavlono Lutfulloh ziyoratgohi misolida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Madaniy meros, ziyoratgoh va qadamjolar, ziyorat, marosim, Mavlono Lutfulloh manoqibi, Mavlono Lutfulloh, naqshbandiya tariqati, Mavlono Lutfulloh nomidagi Chust istirohat bog'i, turizm.*

Ma'lumki, Namangan viloyati O'zbekiston Respublikasining qadimgi maskanlaridan biri bo'lib, bu yerdan mahalliy aholining ibtidoiy turmush tarzi haqida guvohlik beruvchi turli arxeologik topilmalar va me'moriy yodgorliklar topilgan. Hunarmandchilik markazi bo'lgan Chust shahri nafaqat O'zbekiston, balki chet ellarda ham o'z pichoqlari bilan mashhur.

Mustaqillik davri xalqimiz ma'naviy hayotining tarixiy sahifalarini ochish imkoniyatini berdi. O'tgan davr mobaynida ko'plab allomalimizning nomlari bilan serqirra ilmiy-ma'naviy merosi ham yuzaga chiqarildi. Buyuk muhaddislarimiz, alloma faqihlarimiz, kalom ilmi peshvolarining benazir asarlari nashr etildi. Buyuk ajdodlarimiz Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumi, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bohuddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror haqidagi ko'plab risolalar tayorlandi. Bugungi kunda Mavlono Ya'qub Charxiy, Maxdumi A'zam Xojagi Ahmad Kosoniy-Dahbediy, So'fi Olloyor va boshqa ulug' shaxslarning xalqimiz ma'naviyati tarixida tutgan o'rni, diniy-tarbiyaviy meroslariga qiziqish kuchayib, ularning hayoti va faoliyatiga oid manbalarni o'rganishga e'tibor yanada ortib bormoqda.

Ana shunday buyuk allomalardan biri XV asrning oxiri – XVI asrda yashagan, Movarounnahrda naqshbandiya tariqatining buyuk namoyandasi bo'lgan Mavlono Lutfulloh Chustiyning hayoti va faoliyatini o'rganish ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Mavlono Lutfullohning to'liq tarjimai holini manoqib asosida tiklash qiyin. Shunday bo'lsa-da, undagi ma'lumotlar bu haqda muayyan tasavvur olish uchun yetarlidir. Jumladan, otasi Mavlono Fatfulloh yassaviya shayxlaridan biri bo'lgan. Mufti Ohangaroniy unga irshodu irodat mashoyixi turk va xalifa Abu Bakr Siddiq avlodlaridan bo'lgan[1].

Mavlono Lutfulloh 5 yoshga kirganda uni maktabga beradilar va 7 yoshida Qur'onni to'la hatm qiladi. Mavlono ulg'aygach, o'z ilmini takomillashtirish maqsadida Samarqandga keladi. U yerda Xoja Ahrorning xalifasi Muhammad Qozi huzurida olti yil tarbiyalangani va sulukni o'taganligi manbalarda qayd qilingan. Naqshnadiya tariqati bo'yicha Mahdumi A'zam Xojagidan bilimlarni oladi. Shundan so'ng Chodak qishlog'ida qozi Qozi Mahdumning qiziga uylanadi[2]. Manoqibda keltirilishicha, Mavlono Lutfulloh ayrim sabablarga ko'ra, yashash joyini bir necha bor o'zgartiradi hamda so'nggi manzili – hozirgi

Chust shahrida yashaydi. Shu yerda o'ziga qarashli yerlarda dehqonchilik qilib, tirikchilikni o'tkazadi.

Mavlono Lutfulloh o'z pirlari haqida shunday deydi: "Men Hazrati Nosiriddin Xoja Ahror Ubaydullohning ruhoniylaridan xufya zikr talqinini oldim, yana uch buzrukvardan ilm va tarbiya oldim. Avvalo, Mavlono Shoh Husayn Chorkuhiy mening ustozim edilar va ul zotning qoshida "Hidoyai sharif"ni o'qirdim. Garchi, ul zotga bay'at qilmagan bo'lsam-da, ammo ilk tarbiyam o'shal zotdandir. Men faqirga benihoya iltifot qilardilar. Hozir ham menda bir mushkul paydo bo'lsa, ul zotning ruhlariga mutavajjih bo'laman. Albatta, mushkulim oson bo'ladi. Ikkinchisi, Maxdumi A'zam Mavlono Muhammad Qozi piri buzrugimiz edilar. Ul zotga bay'at qilgan edim. Uchinchi yaqinroq piri Maxdumi Kalon Mavlono Xojagi Ahmad bo'lib, bay'at qilganman va takomilga yetganman"[3].

Mavlono Lutfulloh xayotining oxirgi yillarida bir necha marta Baytullohni tavof qilish va Nabiulloh (s.a.v.)ning ravzai mutaharrasini ziyorat qilishga taraddudlanadi. Ammo, ba'zi noaniq sabablarga ko'ra, ushbu ziyorat amalga oshmay qoladi.

Mavlono Lutfullohning tarixi bo'yicha ilmiy jamoatchilikga ma'lum qilingan dastlabki ma'lumotlar rus sharqshunoslaridan V. Bartold, V. Vyantkin va A. Semyonovlarning ilmiy maqolalarida keltirilgan. Qolaversa, o'zbek manbashunos olimi B. Bobojonovning ma'lum qilishicha, yuqoridagi sharqshunos olimlarning harakatlari Mavlono Lutfullohning tarixi o'rganishdagi dastlabki muhim qadamlardan biri bo'lgan.

Shuningdek, ushbu shaxsning tarixini yoritishda Muhammad al-Mufti Toshkandiy Ohangaroniyning "Manoqibi Mavlono Lutfulloh", Ubaydulloh an Naqshbandiy as-Samarqandiyning "Siroj as-solikin va latoyif al-orifin" manqib eng muhim manbalar sifatida ahamiyatga egadir. Ushbu asarlarda shayxning hayoti va ma'naviy fazilatlarini batafsil yoritilgan. Mavlono Lutfullohning yaqin shogirdi va xalifasi Muhammad Mufti Ohangaroniy tomonidan fors-tojik tilida yozilgan "Manoqibi Mavlono Lutfulloh" asarini chustlik mo'tabar otaxon, "Mavlono Lutfulloh" jome' masjidi imomi Abdullohxoja Ma'rufxoja o'g'li va filologiya fanlari doktori, professor Shuhrat Sirojiddinov o'zbek tiliga o'giradi. Mazkur asar 2002-yilda Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tomonidan nashr etildi. Kitobning chop etilishida Chustda tug'ilib o'sgan taniqli olim, professor Zohidullo Munavvarovning hissasi katta bo'ldi.

Mustaqillikning ilk davrlarida Birinchi Prezident I. A. Karimovning Farmoniga ko'ra, Ramazon va Qurbon hayitlari kunlari dam olish kunlariga aylantirildi, diniy rasm-rusumlar bemalol o'tkazilishiga imkon yaratildi. Ushbu islohotlar islom diniga bo'lgan hurmat va ehtirom namunasidir.

Jumladan, Farg'ona vodiysi aholisining sevimli maskanlaridan biri bo'lgan Chust madaniyat va istirohat bog'i xalq orasida Mavlono Lutfulloh nomi bilan ataladi. O'sha davrdan boshlab rasmiy ravishda maqbara qayta ta'mirlangandan so'ng "Mavlono Lutfilloh nomli madaniyat va istirohat bog'i" deb atala boshlandi. Ushbu bog' hududida Mavlono Lutfilloh maqbarasi qad rostladi. Aynan o'sha vaqtlarda Sharqona uslubdagi ushbu obidani Qo'qon shahridan kelgan "Farg'ona maxsus ilmiy ishlab-chiqarish, ta'mirlash ustaxonasi"ning ustalari tiklashga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu xayrli ishlarni amalga

oshirishda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi katta hissa qo'shdi. Ta'mirlash va qurilish loyihalari me'mor Abdujobbor Yahyoyevning bevosita rahbarligida tayyorlandi[4].

Tarixdan ma'lumki, Mavlono Lutfullohning Chust istirohat bog'i ichida xonaqoh va masjidi bo'lgan (ushbu masjid hali ham saqlanib turibdi). Mavlono Lutfulloh majmuasi Chust tumanidagi tarixiy me'moriy yodgorlik bo'lib, dastlab masjid, madrasa, minora, maqbara va boshqa binolardan iborat ansambl bo'lgan. Bizgacha bir tomoni ustunli masjid ayvoni (28x7,2 m) saqlanib qolgan. Ayvon shiftini 3 qatorli 7 ta yog'och ustunlar ko'tarib turadi. Markaziy ravoqlar zinali karniz-kayvon (karnizning alohida ko'tarilgan qismi) hosil qilib, yuqori ko'tarilgan. Qirrali ustunlar sodda, shifti esa serhasham handasiy naqshlar — gulsafsar va pechakgul chirmovuqlari bilan uyg'unlashgan. Toqilariga ishlangan gullarning takrorlanishi muayyan izchillik hosil qiladi. Naqshlarida ko'k, yashil va qizil ranglar ko'proq qo'llanilgan. Masjidning janubiy-sharqiy burchagidan bir necha metr narida minora (balandligi 13 m.) qad ko'targan. Minora tanasi feruza rang koshinlar bilan qoplangan. Mavlono Lutfulloh masjidi shahar istirohat bog'i hududida ta'mirdan so'ng tarix muzeyi sifatida foydalanilmoqda[5].

Mavlono Lutfilloh nomini tiklash borasidagi muhim amaliy ishlardan biri sifatida 1986–1991- yillarda chustlik Murodxon to'ra rahbarligida mahalliy aholi vakillari hamda marg'ilonlik usta Abdusattor Mavlono Lutfilloh nomiga atab, shaharning Kamarsada mahallasi hududida, tuman istirohat bog'ining yuqori qismida Jome' masjidi qurilishini ham misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda ushbu maskanga tashrif buyuruvchilarning soni keskin oshib bormoqda. Yurtimiz va dunyoda eng tez rivojlanib borayotgan ziyorat turizmi sohasi natijasida Mavlono Lutfulloh monidagi madaniyat va istirohat bog'i nafaqat viloyat, balki Respublikadagi mashhur manzillardan biri sifatida sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda.

O'z navbatida, bu yerga keluvchilarni shartli ravishda turli guruhlarga ajratish mumkin. Misol uchun, aholi orasida o'zining turli xil muammolarini yechimi sifatida muqaddas joylarni ziyorat qiluvchilar va insonlar orasida o'zining mashhurligi uchun tashrif buyuruvchi sayohatchilarga ajratish mumkin. Shuning uchun asosan, bahor va yoz mavsumlarida Chust shahri tashrif buyurganlar bilan gavjum holda bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Namangan viloyati Chust tumani aholisi o'zining ko'p asrlik tarixi mobaynida muqaddas ziyoratgohlar bilan bog'liq rang-barang dunyoqarash, urf-odat, ko'nikma, udum va marosimlar tizimini yaratgan. Ana shunday xalqona marosimlar tizimlaridan biri bo'lgan ziyoratgohlar bilan bog'liq qarashlar hududda bir nechta muqaddas qadamjolarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jumladan, Chust tumanidagi muqaddas ziyoratgohlardan biri bo'lgan Mavlono Lutfulloh majmuasida farzand ko'rish maqsadida jonliq so'yish, aziz avliyolar va ajdodlar ruhiga atab is chiqarish, turli xil taomlar pishirish, kabi odatlarning ayrimlari hayotdagi ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar, ayniqsa, ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'sirida asta-sekin yo'qolib, ayrimlari o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, biroq ularning barchasi qanday g'oyaviy

yo'nalishda bo'lganligidan qat'iy nazar, xalqning amaliy faoliyati, o'tmish va hozirgi kunda qo'llanilib kelinayotganligi bilan muhim tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust shahri. 2024-yil.
2. Мухаммад Муфти Оҳангароний. Мавлоно Лутфуллоҳ маноқибӣ. – Тошкент, 2002. – Б. 8.
3. Yuqoridagi asar... – Б. 11.
4. Нажмиддин Файзиддин ўгли ва бошқ. Чуст тарихи. – Чуст, 1995. – Б. 171.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000. “М” ҳарфи. – Б. 975.
6. Majidov, R. R., Boqiyev, F. H., Raximov, D. R., Saydaxmadov, A. V., Soliyev, I. S., & Abduqodirov, D. S. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI DARS MASHG'ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 28-32.
7. Boqiyev, F. (2024). MASSAJ VA GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI REFLEKTOR HARAKATLAR VA “HARAKAT XOTIRASI” NI TAKOMILLASHTIRISH. SPORT VA XORIJIY TILLAR INTEGRATSIYASINING AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI, 1(1), 365-369.
8. Fazliddin, B. (2024). BO 'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O 'QITUVCHILARINI TURISTIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. Research and implementation, 2(4), 142-146.
9. Kurbonali, S., & Umarali, Y. (2023). AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PHYSICAL FITNESS OF COLLEGE STUDENTS. Conferencea, 188-191.
10. Мамажонов, Н., Хамракулов, Р. А., Хайдаралиев, Х., Хасанов, А., Бобожонов, Н., & Усмонов, З. КБК: 751 М23 Ташкилий кумита.